

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING KORPUSINING INTERFEYSI

Nilufar Muradova Baxodir qizi,

Kompyuter lingvistikasi mutaxassisligi magistranti

muradovanilufar06@gmail.com

ToshDO‘TAU

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiridin Muhammad Boburning asarlariga asoslangan korpusning interfeysini yaratish va nimalarga diqqat qaratish kerakligi tahlil qilingan. Maqolada Z.M.Bobur mualliflik korpusining imkoniyatlari va foydalanuvchilar uchun qulaylik masalalari ko‘rib chiqildi. Tadqiqotda korpusning interfeysini ishlab chiqishda qo‘llanilgan texnologiyalar, foydalanuvchi tajribasini yaxshilash uchun qo‘llanilgan dizayn prinsiplari va interfeysning baholanishi ham muhokama etildi. Zahiridin Muhammad Bobur korpusining interfeysining o‘ziga xos xususiyatlari va uning tadqiqotchilar uchun ahamiyati ta’kidlandi. Tadqiqot natijasida Bobur ijodiy merosini o‘rganishda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishning amaliy ahamiyati yoritilgan.

Annotation: This article is devoted to the creation of the interface of the corpus based on the works of Zahiridin Muhammad Babur and the analysis of its functionality. The article examines the main goals of Babur’s author corpus, its main functional capabilities and issues of providing convenience for users. The research also discusses the technologies used in the development of the corpus interface, the design principles used to improve the user experience, and the evaluation of the interface. The specific features of the interface of Zahiridin Muhammad Babur’s corpus and its importance for researchers are emphasized. The results of the research show the practical importance of effective use of modern technologies in the study of Babur’s creative heritage.

Kalit so‘zlar: korpus, korpus lingvistikasi, mualliflik korpusi, interfeys, muallif tili, lug‘at, ma’lumotlar bazasi, qidiruv tizimi, foydalanuvchi.

KIRISH

Korpusga qo‘yiladigan talablardan biri uning interfeysga egaligidir. Korpusning bosh oynasi – yuzi uning interfeysi. Korpus interfeysi – bu korpusning maqsadi, muallifning estetik didi va dunyoqarashiga asoslanib tuziladigan ma’lumotlar jamlanmasidir.

Interfeys qanchalik aniq, sodda va tushunarli bo‘lsa foydalanuvchi uchun shuncha samarali xizmat qiladi. Interfeysning asosiy maqsadi foydalanuvchi va tizim o‘rtasida samarali va qulay aloqa o‘rnatishdir. Bu aloqa orqali foydalanuvchi saytdagi ma’lumotlardan foydalanishi, saytdan ma’lumot olishi mumkin. Interfeys orqali korpus haqida dastlabki xulosa va sayt imkoniyatlari haqida ma’lumot olinadi. Interfeys mukammal ishlab chiqilsa, foydalanuvchi o‘z vazifalarini tezda va

samarali bajarishi, tizim bilan muammosiz ishlashi mumkin. Interfeysda ma'lumotlar tartibli va tizimli shaklda berilsa, bu foydalanuvchiga yanada qulaylik yaratadi.

Nafaqat til korpuslarida balki mualliflik korpuslarining ham interfeysi mukammal ishlab chiqilganligi korpusning imkoniyatlarini oshiradi. Mualliflik korpusi ma'lum bir yozuvchi yoki shoir asarlari jamlangan elektron kutubxonadir. Bu kutubxonani qanday bo'lishi, tuzilishi, dizayni, muallif asarlari joylashuvi va tartibi foydalanuvchi uchun qulay va sodda bo'lishi kerak.

ASOSIY QISM

Ma'lum bir yozuvchi yoki shoirning mualliflik korpusi interfeysi va korpusdagi bo'limlar miqdori va tartibini belgilashda avvalo, muallif ijodiy merosini chuqur o'rganish talab etiladi. Har bir yozuvchi uchun individual yondashuv zarur. Korpusdagi bo'limlar sonini ham ijodkorning ijodiy merosining salmog'i va ijod qilgan janrlar turi bilan bog'liq. Sababi mualliflik korpusi bir shaxsning umumiy ijodining ko'zgusidir. Mualliflik korpusini ishlab chiqishda, har bir yozuvchi uchun alohida yondashuv zarur. Avvalo, yozuvchi ijodining o'ziga xosligini o'rganish, ijodiy merosi bilan batafsil tanishish darkor. Negaki, mualliflik korpusining tuzilishini, tarkibini ishlab chiqishda yozuvchi ijodi xususiyatidan kelib chiqqan holda yondashiladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur mualliflik korpusi interfeysi va bo'limlar sonini belgilashda ijodiy merosidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan. Bobur hayotining ko'p qismini jang-u jadallarda, siyosiy maydonda o'tkazganiga qaramasdan o'zidan boy adabiy meros qoldirgan. Boburning umumiy 7 ta asari mavjud. Bular quyidagilar.

1-jadval. Zahiriddin Muhammad Boburning ijodiy merosi

1. “Boburnoma” shoh memuar asar	
2. Aruz ilmidan saboq beruvchi “Muxtasar”	
3. Soliq ishlariga oid “Mubayyin”	
4. “Bobur devoni”	
5. Harbiy tizimga oid “Harb ishi”	
6. Musiqa borasidagi “Musiqa ilmi” asar	
7. “Volidiya” tarjima asari	

Yuqoridagi asarlardan “Boburnoma”, “Muxtasar”, “Mubayyin”, “Bobur devoni” hamda “Harb ishi” asarlari yetib kelgan. Ammo “Musiqqa ilmi” va “Volidiya” asarlari yetib kelmagan. Ilmiy tadqiqotimizning obyekti sifatida Boburning “Boburnoma” va “Bobur devoni” asarlari tanlab olingan. Korpusga qolgan asarlarini ham kiritishni kelgusi ilmiy ishlarimizda davom ettirish maqsad qilingan.

Zahiriddin Muhammad Bobur mualliflik korpusi interfeysi 6 bo‘limdan iborat (1-rasm).

1. Bosh sahifa
2. Muallif haqida
3. Boburnoma
4. Bobur devoni
5. Lug‘at
6. Qidiruv


Zahiriddin Muhammad Bobur muallif korpusi tarkibini tuzishda, avvalo, yozuvchining ijodiy merosini o‘rganish, yozuvchi ijodi o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash talab etiladi. Bosh sahifada Zahiriddin Muhammad Boburning surati aks etgan va prezidentimizning nutqidan quyidagi so‘zlari o‘rin olgan. “Jahon tarixida o‘chmas iz qoldirgan betakror siymolardan biri Zahiriddin Muhammad Bobur buyuk shoir, qomusiy olim, davlat arbobi va mohir sarkarda sifatida butun dunyoda ma’lum va mashhurdir. Uning beqiyos ilmiy-ijodiy merosi nafaqat milliy madaniyatimiz va xalqimiz adabiy-estetik tafakkurining shakllanishida, balki jahon adabiyoti, ilm-fani va davlatchiligi tarixida alohida o‘ringa ega” [<https://lex.uz/uz/docs/-6371358>].

Bosh sahifa dastlabki oyna bo‘lganligi bois, foydalanuvchida bu korpus haqidagi ilk tasavvurni shakllantiradi. Shu sababli bosh sahifa tartibli va ma’lumotlar tushunarli tarzda joylashtirilgan bo‘lishi zarur.



1-rasm. Zahiriddin Muhammad Bobur korpusi interfeysi

Ikkinchi bo‘lim muallif haqida deb nomlangan. Bu bo‘limda Zahiriddin Muhammad Boburning bolalik va yoshlik davri, ism va taxallusi, nasl-nasabi, hayoti va ijodiga tegishli eng muhim ma‘lumotlar joylangan. Korpus foydalanuvchisi nafaqat Bobur asarlari bilan balki, hayotiga oid ma‘lumotlar bilan ham tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu bo‘limda Bobur shaxsiyatiga va ijodiy faoliyatiga oid manbalar joy olgan (2-rasm).



2-rasm. Zahiriddin Muhammad Bobur korpusining 2-bo‘limi

Korpusda uchinchi bo‘lim “Boburnoma” deb nomlangan. “Boburnoma” asari muallifning shoh memuar asari hisoblanadi. Asar uch qismdan iborat bo‘lib, unda O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Hindistondagi hayoti tasvirlangan. Shu bilan birga


xalqlarning urf-odatları, geografiyasi, etnografiyasi, turmush tarzi, madaniyati, o'simlik va hayvonot dunyosiga oid ma'lumotlar o'rin olgan. “Boburnoma” asari shu kungacha bir necha marta nashr etilgan. Korpusga 2002-yilda “Sharq” nashriyot-matbaasi tomonidan nashr etilgan varianti joylandi. Asar krill yozuvida nashr etilgan. Korpus uchun krilldan lotin yozuviga o'girilgan shaklda kiritildi. Foydalanuvchi asar matni bilan tanishishi va matn tarkibidagi istalgan so'zni qidirish imkoniyati mavjud.

Korpusda to'rtinchi bo'lim “Bobur devoni” deb nomlangan. Bobur ijodining asosiy qismi lirik asarlar tashkil etadi. Devonda aynan lirik janrdagi asarlari jamlangan. Bobur devonidagi janrlar soni va miqdori quyidagi jadvalda berilgan (1-jadvalga qarang). Korpusga jadvalda keltirigan barcha janrga oid ijod namunalari o'rin olgan.

2-jadval. Bobur devonidagi janrlar soni va miqdori

№	JANRI	SONI
1	G'azal	220
2	Tuyuq	16
3	Ruboiy	242
4	Qit'a	25
5	To'rtlik	9
6	Muammo	54
7	Masnu she'r	1
8	Fard	99
9	Ash'ori forsiy	2
10	Ruboiyot	12
11	Muqattoat	7
12	Fardho	17
13	Masnaviy	364
14	Noma	6

Devonning 2022-yilda “Sharq” nashriyoti tomonidan nashr etilgan varianti asos qilib olingan. Foydalanuvchi bu bo'limga kirganda quyidagi oyna hosil bo'ladi (2-rasm). Devonda jami o'n to'rtga janrga oid lirik she'rlardan iboratligi uchun korpusda ham har bir janr namunalari alohida joylangan. Bu bo'limda oynada 14 ta janrga oid asarlari aks etgan. Korpusga devon yaxlit tarzda emas janrlariga xos tartibda o'rin olgan. Devondagi lirik janrlar sarlavhalanmagan uchun, har bir janrga oid asarlari birinchi satri bilan berilgan. Masalan g'azal qismiga kirilsa devondagi barcha g'azallarning birinchi satri ketma-ketlikda chiqadi. Foydalanuvchi istalgan g'azalni birinchi satri belgilansa, butun g'azal matni bilan tanishishi mumkin.



3-rasm. Bobur devoni bo'limi

Korpusdagi eng muhim xususiyatlardan biri qidiruv tizimi hisoblanadi. Shu sababli qidiruv tizimi qanchalik mukammal tuzilgan bo'lsa, korpus ham shunchalik sifatli bo'ladi. Korpusda qidiruv tizimining bir necha shakllari mavjud. Birinchisi so'zshaklida, ikkinchisi janr shaklidagi qidiruv tizimi hisoblanadi. Bu yanada muallif asarlarida qidiruvni amalga oshirishda qulaylik yaratadi. Birinchi qidiruv tizimi ya'ni so'z shaklida qidiruv amalga oshirilganda, bu so'z "Boburnoma" va "Bobur devoni" asarlaridan olingan natijani taqdim etadi. Ikkinchi qidiruv shakli-janr bo'yicha qidiruv amalga oshirilganda esa, "Bobur devoni"dagi janrlar tarkibidan qidiruv olib boriladi. Korpus menejerining mukammal ishlab chiqilganligi korpus qidiruv tizimi imkoniyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Zahiridin Muhammad Boburning asarlariga asoslangan mualliflik korpusning interfeysini yaratish va uning samaradorligini oshirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, mukammal ishlab chiqilgan interfeys Bobur ijodiy merosini o'rganish va tadqiq etish jarayonini osonlashtiradi. Korpus interfeysining muhim xususiyatlari sifatida qulay qidiruv tizimi, matnlarni tezkor tahlil qilish imkoniyati, lug'at va grammatika ma'lumotlariga oson kirish, turli xil so'rovlarni amalga oshirish va statistik natija olish imkoniyatini beradi. Kelajakdagi tadqiqotlarda korpusga yangi funktsionallarni qo'shish, ma'lumotlar bazasini boyitish va muallifning boshqa asarlarini ham korpusga joylashtirish maqsad qilingan. Ushbu mualliflik korpusi Bobur merosini chuqurroq o'rganish, tahlil qilish va uning boy tilini o'rganish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.



,Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamroyeva Sh. O‘zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari: Monografiya. Globe edits, 2020.
2. Hoshimova D. “Boburnoma” asarining tanqidiy matnini yaratish muammolari. Filol. Fan. Nomz... diss. – Toshkent, 2006.
3. Rahimov A., Kompyuter lingvistikasi asoslari. –Toshkent: Akademnashr, 2011.
4. Xolmonova Z. “Boburnoma”- til qomusi. – Toshkent: Akademnashr, 2021.
5. Hamroyeva Sh., Korpus lingvistikasi atamalarining qisqacha izohli lug‘ati. 2020.
6. <https://lex.uz/uz/docs/-6371358>